

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

“KELISHILGAN”

**O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
“O'zarxiv” agentligi direktori**



 **U. Yusupov**

2026-yil 28-yanvar

“TASDIQLAYMAN”

**Yuridik kadrlarni qayta
tayyorlash va malakasini oshirish
instituti direktorining birinchi
o'rinbosari**



 **R. Xursanov**

2026-yil 28 - yanvar

**“Tashkilotlarda arxiv ishi va elektron arxivlarni tashkil etish asoslari” malaka
oshirish o'quv kursi bo'yicha
O'QUV DASTURI
(malaka oshirish)**

I. O‘QUV KURSINING MAZMUNI

1.1. Kursning maqsadi
Ushbu o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi Qonuni va sohaga oid qonunchilik hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-son qarori asosida ishlab chiqilgan.
1.2. Kutilayotgan natijalar
O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishga doir talablar asosida arxivchilar bilimlari mustahkamlanadi va arxivchilar, arxivariuslar, arxiv ishi yuklatilgan bilimlari mustahkamlanadi va amaliyotda qabul qilinayotgan sohaviy yangi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardagi yangiliklar mazmun-mohiyati to‘g‘risida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishiga, idoraviy arxivlar faoliyatining asosiy kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga zamin yaratadi.
1.3. Tinglovchilar kontingenti
Arxiv sohasidagi mutaxassislar
1.4. O‘qitish shakli
O‘quv mashg‘ulotlari an‘anaviy yoki masofaviy shaklda tashkil etilishi mumkin O‘quv mashg‘ulotlari nazariy qismi Institutda tashkil etiladi, amaliy qismi “O‘zarxiv” agentligi tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda amalga oshiriladi.

II. MAVZULAR REJASI

№	Mavzular nomi	Mashgʻulotlarga ajratilgan soatlar		
		Ma`ruza	Amaliy mashgʻulot	Jami
1-modul. Arxiv ishi va ish yuritishning huquqiy, tashkiliy va amaliy asoslari				
1.	Arxiv ishi va ish yuritish sohasiga oid qonun va qonunchilik hujjatlari. Arxiv ishi va ish yuritishning huquqiy asoslari.	2	-	2
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati va uning arxiv sohasi tizimida amalga oshirilishi. Arxiv tizimida manfaatlar toʻqnashuvini boshqarish.	2	-	2
3.	Arxiv hujjatlarini fondlashtirish. Arxiv fondi doirasida arxiv hujjatlarini tashkil etish. Arxivlarni arxiv hujjatlari bilan jamlashni tashkil etish. <i>(dars mashgʻulotlari amaliyotga yoʻnaltirilgan zamonaviy shakllar —“aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo boʻlib ishlash” va boshqa usullarni qoʻllagan holda tashkil etiladi).</i>	-	2	2
4.	Arxiv hujjatlari hisobini yuritish. Arxivlarda arxiv hujjatlarini	-	4	4

	saqlash. (dars mashg'ulotlari amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy shakllar —“aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo'lib ishlash” va boshqa usullarni qo'llagan holda tashkil etiladi).			
5.	Arxiv hujjatlarining mavjudligi va holatini tekshirish, topilmagan hujjatlar qidiruvini tashkil etish. Arxiv hujjatlariga fizikaviy-kimyoviy va texnikaviy ishlov berish, ta'minlash. (dars mashg'ulotlari amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy shakllar —“aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo'lib ishlash” va boshqa usullarni qo'llagan holda tashkil etiladi).	-	2	2
6.	Arxivlarda arxiv hujjatlaridan foydalanish.	2	-	-
jami 14 soat				
2-modul. Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish				
7.	Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish. Elektron hujjatlarni yaratish va tizimlashtirish tartibi. (dars mashg'ulotlari amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy shakllar —“aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo'lib ishlash” va boshqa usullarni qo'llagan holda tashkil etiladi).	2	-	-
8.	Elektron arxivlar (jahon amaliyoti), elektron hujjatlar va ko'rsatiladigan arxiv xizmatlari (elektron xizmatlar).	-	2	2
9.	Elektron hujjatlarning saqlovi va axborot xavfsizligini ta'minlash. (dars mashg'ulotlari amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy shakllar —“aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo'lib ishlash” va boshqa usullarni qo'llagan holda tashkil etiladi).	-	2	2
10.	Arxiv sohasi xodimlarining ish faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.	2	-	2
jami 8 soat				
3-modul. Maxsus ko'nikmalar				
11.	Arxiv ishi va ish yuritish sohasida davlat standartlari.	2	-	2
12.	Tashkilotning yig'majildlar nomenklaturasi. Uni tuzish va tasdiqlash tartibi. (dars mashg'ulotlari amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy shakllar —“aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo'lib ishlash” va boshqa usullarni qo'llagan holda tashkil etiladi).	4	-	4
13.	Arxiv hujjatlari qimmatligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish tartibi.	-	2	2
jami 8 soat				
4-modul. Psixologik ko'nikmalar va vaqtni boshqarish				
14.	Arxiv sohasi xodimlarining psixologik kompetensiyasi ko'nikmalarini rivojlantirish.	-	2	2
15.	Ish vaqtdan unumli foydalanish va vaqtni boshqarish (“taym-menedjment”) qoidalari. (dars mashg'ulotlari amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy shakllar —“aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo'lib ishlash” va boshqa usullarni qo'llagan holda tashkil etiladi).	-	2	2

	<i>ishlash” va boshqa usullarni qo‘llagan holda tashkil etiladi).</i>			
				jami 4 soat
				Yakuniy sinov 2 soat
J A M I:			36 soat	

III. O‘QUV MATERIALINING MAZMUNI

1-mavzu: Arxiv ishi va ish yuritish sohasiga oid qonun va qonunchilik hujjatlari. Arxiv ishi va ish yuritishning huquqiy asoslari.				
Asosiy masalalar: Arxiv ishi va ish yuritish sohasiga oid qonun va qonunchilik hujjatlari. Arxiv ishi va ish yuritishning huquqiy asoslari.				
2-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati va uning arxiv sohasi tizimida amalga oshirilishi. Arxiv tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish.				
Asosiy masalalar: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan Adliya vazirligining vakolatlari. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishi. Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik Adliya organlari va muassasalari xodimlarining o‘dov-axloq qoidalari va ularga rioya qilmaslik oqibatlar. Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi, ko‘rinishlari va kelib chiqishining asosiy sabablari. Adliya vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish. Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga oid xodimlarning majburiyatlari. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash (oshkor qilish) chora-tadbirlari. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish (hal qilish) choralari va javobgarlik masalalari				
3-mavzu: Arxiv hujjatlarini fondlashtirish. Arxiv fondi doirasida arxiv hujjatlarini tashkil etish. Arxivlarni arxiv hujjatlari bilan jamlashni tashkil etish.				
Asosiy masalalar: Arxiv hujjatlarini fondlashtirish. Arxiv fondini tashkil etish. Arxiv fondi doirasida hujjatlarni tashkil etish qoidalari. Arxiv hujjatlarini jamlashni tashkil etish. Hujjatlarni qabul qilish va qayta ishlash. Elektron arxivlarni jamlash. Arxiv fondini yangilash va kengaytirish. Arxiv hujjatlarini saqlashni tashkil etish. Jamlash manbalaridan arxiv hujjatlarini qabul qilish. Arxiv hujjatlarini foydalanishga tayyorlash.				
4-mavzu: Arxiv hujjatlari hisobini yuritish. Arxivlarda arxiv hujjatlarini saqlash.				
Asosiy masalalar: MAF ning davlat hisobi. Arxiv hujjatlarini hisobini tashkil etish. Arxiv hujjatlarining hisob birliklari. Arxiv hujjatlarining kelib tushishi va chiqishini hisobga olish. Arxiv hujjatlarini saqlash. Arxiv hujjatlarining saqlanishini ta‘minlash bo‘yicha umumiy talablar. Arxiv hujjatlarini saqlashning normativ rejimlari. Arxiv saqlovxonalarini saqlash vositalari bilan jihozlash. Arxiv saqlovxonasida hujjatlar saqlovini tashkil etish. Arxiv xonalarini stellajlar, shkaflar va tokchalarni raqamlashtirish tartibi. Topografik ko‘rsatkichlarni yuritish va yorliqlarni rasmiylashtirish.				
5-mavzu: Arxiv hujjatlarining mavjudligi va holatini tekshirish, topilmagan hujjatlar qidiruvini tashkil etish. Arxiv hujjatlariga fizikaviy-kimyoviy va texnikaviy ishlov berish, ta‘minlash.				
Asosiy masalalar: Arxiv hujjatlarining mavjudligi va holatini tekshirish, topilmagan hujjatlar qidiruvini tashkil etish. Arxiv hujjatlarining texnik va fizikaviy-kimyoviy holatini				

tekshirish. k holatda bo'lgan va tiklab bo'lmaydigan darajada shikastlangan Milliy arxiv fondi hujjatlarini aniqlash. Arxiv hujjatlariga fizikaviy-kimyoviy va texnikaviy ishlov berish. ta'minlash.
6-mavzu: Arxivlarda arxiv hujjatlaridan foydalanish.
Asosiy masalalar: Arxivning ilmiy ma'lumotnoma apparati. Arxiv hujjatlarini arxiv saqlovxonalaridan berishga umumiy talablar. Arxiv hujjatlari beriladigan muddatlar va ularni rasmiylashtirish. Berilgan arxiv hujjatlarining saqlanishini nazorat qilish. Foydalanuvchilarning so'rovlarini bajarish tartibi. Arxiv ma'lumotlarini, arxiv ko'chirmalarini va arxiv nusxalarini rasmiylashtirish. Arxiv o'quv zalida foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish.
7-mavzu: Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish. Elektron hujjatlarni yaratish va tizimlashtirish tartibi.
Asosiy masalalar: Hujjatlarni aniqlash va baholash. Tashkiliy ishlarni amalga oshirish. Raqamlashtirish standartlarini belgilash. Hujjatlarni tasniflash va identifikatsiya qilish. Elektron hujjat yaratish va tizimlashtirish.
8-mavzu: Elektron arxivlar (jahon amaliyoti), elektron hujjatlar va ko'rsatiladigan arxiv xizmatlari (elektron xizmatlar).
Asosiy masalalar: Arxivlarning raqamli konvertatsiyasi. Markazlashtirilgan platformalar. Xavfsizlik va uzluksizlik. Elektron arxiv xizmatlari. Raqamli hujjatlarni elektron formatda olish.
9-mavzu: Elektron hujjatlarning saqlovi va axborot xavfsizligini ta'minlash.
Asosiy masalalar: Elektron hujjatlarni saqlash tizimi. Saqlash formati. Zaxira nusxalar yaratish. Axborot xavfsizligini ta'minlash tamoyillari. Maxfiylikni ta'minlash. Hujjatlarning mavjudligini ta'minlash.
10-mavzu: Arxiv sohasi xodimlarining ish faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.
Asosiy masalalar: Sun'iy intellektning huquqiy tahlildagi roli. Hujjatlarni avtomatik tahlil qilish. Qonunchilik ma'lumotlarini qidirish. Tahliliy prognozlash. Jarayonlarni avtomatlashtirish. Tezlik va samaradorlik. Legal Tech vositalarining asosiy turlari. Legal Tech vositalarini qo'llash usullari. Misollar va amaliy keyslar.
11-mavzu: Arxiv ishi va ish yuritish sohasida davlat standartlari.
Asosiy masalalar: Arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi davlat standartlarining ahamiyati. Raqamlashtirish va elektron arxivlarni boshqarish. Архив hujjatlarini kirib ko'rishdagi cheklovlar va xavfsizlik. Arxiv hujjatlarini tasniflash, tavsiflash, va kataloglash.
12-mavzu: Tashkilotning yig'majildlar nomenklaturasi. Uni tuzish va tasdiqlash tartibi.
Asosiy masalalar: Tashkilot faoliyati davomida yaratiladigan barcha hujjatlarning ro'yxati. Har bir hujjat uchun belgilangan saqlash muddati. Yig'majildlar nomenklaturasini tuzish va tasdiqlash tartibi. Yig'majildlarning arxiv ro'yxatini tuzish.
13-mavzu: Arxiv hujjatlari qimmatligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish tartibi.
Asosiy masalalar: Ekspertiza hujjatlarini rasmiylashtirish. Arxiv hujjatlari ekspertizasining afzalliklari. Hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasini

o'tkazishning asosiy maqsad va vazifalari. Asosiy bosqichlari va mezonlari. Hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish jarayoni va uning natijalarini rasmiylashtirish.

14-mavzu: Arxiv sohasi xodimlarining psixologik kompetensiyasi ko'nikmalarini rivojlantirish.

Asosiy masalalar: Xodimlarning psixologik barqarorligini oshirish. Stressni boshqarish va emotsional intellektni rivojlantirish. Konstruktiv yondashuvning ahamiyati. Nizo eskalatsiyasining oldini olish usullari. Konflikt belgilarini aniqlash. Konfliktni eskalatsiya qilishdan saqlanish. Stressni boshqarishning ahamiyati. Stressga qarshi kurash usullari. Charchoq va demotivatsiya belgilarini aniqlash. Muvaffaqiyatli stress boshqaruvi usullari. Stressni bartaraf etish bo'yicha dasturlar. Xodimlarning stressga chidamliligi oshishi va motivatsiyasi yaxshilanishi.

15-mavzu: Ish vaqtidan unumli foydalanish va vaqtni boshqarish ("taym-menedjment") qoidalar.

Asosiy masalalar: Taym-menedjmentning ahamiyati. Vazifalarni ustuvorliklarga qarab taqsimlash. vaqtni rejalashtirish orqali haddan tashqari yuklamalardan qochish. vaqtni optimallashtirish orqali samaradorlikka erishish. Eisenhower matritsasi yordamida vazifalarni shoshilinchlik va muhimlik bo'yicha tasniflash. Pomodoro texnikasi yordamida vaqtni qismlarga bo'lib ishlash. Eslatmalar va taymerlar yordamida muddatlarni nazorat qilish.

IV. O'QUV KURSINING O'QUV-USLUBIY TA'MINOTI

4.1. Tavsiya etiladigan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga karshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.
O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni.
O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni.
O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni.
O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni.
O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonuni.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20-sentabr 2019-yildagi PF-5834-son "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22-aprel 2014-yildagi 100-son "Arxivlarning asosiy ish turlari bo'yicha vaqt va ishlab chiqarishning namunaviy normalarini tasdiqlash to'g'risida" qarori.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktabrdagi 482-sonli "Arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi qarori.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-sonli "Arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi qarori.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktabrdagi 482-sonli

“Arxiv ishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-apreldagi 101-sonli “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-sonli “Arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24-avgust 2021-yildagi 538- son “”Davlat organlari va tashkilotlarning arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-son “Davlat fuqarolik xizmatchilarini tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020-yil 22-yanvardagi 14-um-son “Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limini tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020-yil 24-fevraldagi 42-um-son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini belgilash to‘g‘risida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 4-dekabrdagi 403-um-son buyrug‘i bilan kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan*).

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020 yil 24 fevraldagi 43-um son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 4-dekabrdagi 403-um-son buyrug‘i bilan kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan*).

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020-yil 24-fevraldagi 45-um son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, bartaraf etish, monitoring qilish hamda korrupsiyaga qarshi kurashishi bo‘yicha o‘qitish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 4-dekabrdagi 403-um-son buyrug‘i bilan kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan*).

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2021-yil 14-yanvardagi 18-um-son “Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi siyosatini amalga oshirish va muvofiqlashtirish uchun “Halollik ofitseri” lavozimini joriy etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2022-yil 28-oktyabrdagi 252-um-son “Adliya organlari va muassasalari xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 19-iyuldagi 194-um-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida Nizom” (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2022-yil 9-avgustdagi 180-sht-sonli buyrug‘i bilan kiritilgan qo‘shimchalar bilan*).

III. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

3.1. O‘qitish texnologiyasi: Interfaol o‘qitish texnologiyasi – tinglovchilarning o‘quv mashg‘ulotlarida o‘zaro hamkorlik qilishlari hamda faol qayta aloqa shakllaridan

foydalangan holda tegishli o'quv mashqlarini bajarish.

3.2. Ta'lim texnologiyasi va uslublarining turlari:

O'quv jarayonida dars mashg'ulotlarini tashkil etishning amaliyotga yo'naltirilgan O'quv jarayonida dars mashg'ulotlarini tashkil etishning amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy shakllari – muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishlash (“aqliy hujum” interfaol uslubini qo'llagan holda va h.k.), arxiv sohasi bilan bog'liq hujjatlar loyihalarini tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar qo'llaniladi.

O'qish jarayonida klinik ta'lim, nizoli jarayonlarning imitatsiyasi hamda sayyor mashg'ulotlar qo'llanilishi mumkin.

IV. O'QUV KURSINING MODDIY-TEXNIK TA'MINOTI

4.1 O'quv dasturini o'zlashtirish va ta'lim jarayonlarini ta'minlashga mo'ljallangan o'quv va o'quv-metodik materiallar.

O'quv jarayonini tashkil etish:

O'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, masofaviy ta'lim hamda o'quv mashg'ulotlarining interfaol “aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamo bo'lib ishlash” hamda bilim va ko'nikmalar berishning boshqa zamonaviy shakllari joriy etiladi.

O'quv materiallari:

ma'ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va fan bo'yicha o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slydlar, prezentatsiyalar va h.k.).

O'quv materiallari Axborot-resurs markazi va kafedralarda bosma hamda elektron shaklda saqlanadi.

O'quv-metodik materiallar:

test (yoki nazorat savollari) yoxud masofaviy topshiriqlar;

amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazu va h.k.).

O'quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta'minoti:

shaxsiy kompyuter – o'qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi;

“ppt (pptx)”, “doc (docx)”, “xlsx”, “mp3” va boshqa h.k. formatdagi fayllar bilan ishlash uchun dasturiy ta'minotlar;

multimedia qurilmasi, ekran yoki smart-televizor.

O'quv materiallari Axborot-resurs markazi va kafedralarda bosma hamda elektron shaklda saqlanadi.